

## **SUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARI KOMPOZITSIYASIDA BADIY DETALLAR**

Sultonqulova Shaxnoza Bobonazarovna

Shahnoza.sulton21@mail.com

+998995523112

### **TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI YO'NALISHI 2-BOSQICH MAGISTRANTI ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada adib Shukur Xolmirzayev hikoyalari kompozitsiyasida badiiy detallar, jumladan uning peyzaj, narsa-predmet, interyer kabi turlaridan keng foydalangani va asar tuzilishining o'ziga xosligini ta'minlagani ilmiy tahlil etiladi. Yozuvchi ijodiy kredosi hisoblangan tasvir ob'ektivligini yuzaga chiqarishda qahramon holati uning ichki ruhiy dunyosi, tasvirning aniq va ishonchliligi, muallifning badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda badiiy detallar muhim ahamiyat kasb etadi. Kalit 'zlar:kompozitsiya, badiiy detal, obraz, tabiat, peyzaj detal,predmet detal, ekspozitsiya, interyer detal, badiiy konstepstiya

#### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье будет проведен научный анализ рассказов Адиба Шукура Холмирзаева, в которых широко использованы художественные детали, в том числе такие его виды, как пейзаж, вещь-предмет, интерьер, и т.д., которые обеспечили оригинальность структуры произведения.

В выводе на поверхность объективности образа, творческим кредо которого является писатель, состояние героя, его внутренний духовный мир, ясность и достоверность образа, художественная детальность работы приобретают важное значение при выводе на поверхность художественного замысла детали становятся важными. Ключевые слова: композиция, художественная деталь, образ, природа,пейзаж деталь,предметная деталь, экспозиция, интерьер деталь, художественная концепция

## ANNOTATSIYA

In this article, the writer Thanks the xolmirzaev kompozitsiya story of artistic details, including its landscape, things-objects, interiors, such as the widely used cultivars havei made that provide specific and the gameis scientific analysis.

The writer is the occurrence of internal mental image out of his hero status kredosi creative ob'ektivligi the world, and the reliability of the image is clear, the author details in the likelihood of out your artistic artistic goals] which plays an important role.

**Keywords:** kompozitsiya, artistic details, images, nature, landscape details,item details, exposition, interior details, artistic konstepstiya

Shukur Xolmirzayev hikoyalari kompozitsiyasida detalning badiiy-funksional o'rni haqida aytilganda, yozuvchining o'ziga xos uslubi, ifoda yo'sini xususida avvalo fikr yuritish lozim. Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi ayni paytda ijodiy jarayonning o'ziga xosligini belgilaydi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o'ziga xos tarzda kechadi. Shunday ijodkorlar borki, ifoda yo'sinining betakrorligi, badiiy tasvir uslubining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shukur Xolmirzayev uslubi haqida adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov shunday yozadi: "U shu paytgacha o'zbek adabiyotida qalam tebratib kelayotgan katta-kichik yozuvchilarning birontasiga o'xshamasdi. Uning jumlasidan adabiyotda yangilik, yangi jumla qurilishi, yangi uslub boshlanayotganga o'xshardi, ajabki, o'z ideallariga ham o'xshamasdi u"<sup>1</sup>. Shu o'rinda Shukur Xolmirzayevning o'zi "Uslubda hamma narsa mujassam: dunyoqarashdan tortib, nuqta qo'yishgacha..."-, degan edi. Yozuvchi uslubiga e'tibor qaratadigan bo'lsangiz, sodda, har qanday jimjimadorlikdan xoli. Qahramonlari holatini nihoyatda ixcham, ma'nodor tasvirlaydi. Asarni lo'nda, ohangdor, zamzamali dialoglar asosida qurishni o'z yozuvchilik uslubi darajasiga ko'taradi.

Shukur Xolmirzayevning 1960-yilda yozilgan "Notanish odam" hikoyasidagi detallar orqali bu xususiyatlarni ko'rib chiqamiz. Hikoya yosh bir yigit, havaskor ovchi tilidan bayon qilingan. Bu asarda bir qancha detallar borki, ular asarning yetakchi badiiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Bulardan ayrimlarini quyida tahlil qilib o'tamiz. Dastlab hikoya boshlanmasini kuzatsak: "Ovga borayotgan edim, havo aynidi. «Bahor havosi-da, bir sevalab o'tar», deb

<sup>1</sup> Xolmirzayev Sh. Saylanma: II J. – Toshkent: "Sharq", 2005. – J. 2. – B.



*ketaverdim. Biroq sal o'tmay yomg'ir shunday quyib berdiki, birpasda ust-boshim ho'l bo'lib, badanimga yopishib qoldi. Shunda, turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan kamarcha borligi yodimga tushdi. Jarga yaqinlashishim bilan shuvoq isi aralash tutun dimog'imga urdi. Kamarga kirdim. O'rtada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan, o'rta bo'y bir kishi eshagining ayilini bo'shatardi....."*

Hikoyada yozuvchi detalning qator turlarini qo'llaydi.

1. Peyzaj
2. Predmet
3. Interyer

Ko'plab hikoyalarida peyzaj tasvirida yozuvchi yomg'ir yog'ayotgan manzara bilan boshlanadi.

“Jarga yaqinlashim bilan *shuvoq isi aralash tutun* dimog'imga urildi”<sup>2</sup>. Ushbu asarda ifodalangan asosiy fikr kamar (tog' yonbag'ridagi kichik g'orga o'xshash joy) ichida yoqilgan gulxan bilan bog'liq. Shu sabali hikoyadagi boshqa detallar ham mana birinchi tasvirga bog'lanib asardagi ustuvor nuqtai nazarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shuvoq bilan bog'liq detalga kitobxon asar davomida yana duch keladi: “Nam shuvoq hidi anqiydi”. Bu endi kamar ichidagi tasvirga aloqador detal. Bu tasvirlarni muallif izohlamagan. U Odil Yoqubov qayd etganidek, tasvirni detallashtiradi-yu, voqeaga aralashmaydi, ya'ni uni izohlab o'tirmaydi. Yuqorida ko'rib o'tilgan **shuvoq** o'simligi bilan bog'liq ikki detal (kamarda shuvoqning borligi va undan gulxan yoqilgani) bulut va yomg'irga aloqador detallar bilan birlashib struktur-semiotik nuqtai nazardan qaralganda yagona paradigmani yuzaga keltiradi:

*shuvoq isi aralash tutun – nam shuvoq hidi - cho'ldan ko'tarilgan bulut – kamar o'rtasidagi gulxan - yomg'ir quyishi – notanish odamning soy yoqasida shox-shabba terishi.*

“Cho'ldan ko'tarilgan bulut” roviy nutqida berilmagan. U asardagi dialogda hikoya personajlaridan biri (noma'lum odam) tomonidan aytiladi. Bu hikoya matnidagi eng muhim detal bo'lib, u nafaqat asardagi boshqa detallar, shuningdek, suyet strukturasi, ustuvor badiiy konstepstiya bilan chambarchas bog'liq.

Asarning asosiy personaji, nomi ma'lum etilmagan qahramon (notanish

<sup>2</sup> Xolmirzayev SH. Tanlangan asarlar: Hikoyalar.-T: “Sharq”2020. –. B. 21. 2 jild 12 bet.



odam)ning aytishicha, cho‘ldan ko‘tarilgan bulut “to‘kkan yomg‘ir ancha muncha mahalda tinmaydi. Agar bulut tog‘dan pastlagan bo‘lsa, uning yo‘rig‘i boshqa edi”. Hikoyada roviy vazifasini ham bajaruvchi personaj hayotda hali yetarli tajribaga ega emas. Shu boisdan u cho‘l tarafdin kelayotgan bulutni ko‘rsada, unga ahamiyat bermagan, oqibatda yomg‘ir ostida qolib ust-boshi shalabbo bo‘ladi. Kamardagi suhbatdoshi unga aytganidek: “Shuni ko‘ra bilganingizda, ilgariroq o‘zingizni panaga tortardingiz, bunday qunishib o‘tirmasdingiz”<sup>3</sup>. Bu mulohazalar kamardagi “qirg‘iz bashara, lekin qoshlari quyuq, qirq yoshlardan oshgan baquvvat kishi”ning kuzatuvchan, tuyg‘un, xalq donoligini o‘z shaxsiyatida jamlagan dono inson ekanligidan dalolat berib turadi. Ammo bu kichik hajmli asar mazkur personajning amaliy bilimining balandligini ko‘rsatish uchungina yozilmagan. Hikoyada yozuvchining asosiy badiiy maqsadini “notanish odamning soy yoqasida shox-shabba terishi” bilan bog‘liq detal yuzaga chiqaradi va ushbu detal hikoya kompozitsiyasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu adabiy uzvning badiiy matn tarkibiga kiritilishi insonparvarlik asosiga ega milliy urf-odat bilan bog‘liq.

Mazkur hikoyada yozuvchi tomonidan portret detalining qo‘llanilishi ham muhim jihatlardan biridir. O‘quvchiga muallif qahramoni aniq tasavvurga sig‘dirish uchun uning quyidagicha tasvirini keltiradi: “Notanish odam” – “qirg‘iz bashara, lekin qoshlari quyuq kishi” – inson badiiy suvrati tasviridagi kontrast asosida qurilgan mazkur portret detal personajning o‘ziga xos qiyofasini gavdalantirish ishiga xizmat qilgan. Umuman, “Notanish odam” hikoyada qo‘llanilgan detallarning qator badiiy funksional vazifalari mavjud. Jumladan portret detal personajning o‘ziga xos qiyofasini gavdalantirishga xizmat qilgan.

Hikoya qurilmasida intyerer joy nomi detali ham muhim ahamiyat kasb etadi. Intyerer – adabiyotshunoslikda ekspozitsiya deb ataladigan tasvir vositasiga taalluqlidir. Ekspozitsiyada biror-bir joy (xona, uy, hovli, ko‘cha, maydon) badiiy ifoda etilsa, intyerer – yopiq binoning ichki tasviri. U “tor ma’noda binoning ichki hududi bo‘lib, o‘z ichiga shu hududga oid narsa-jihozlarni ham oladi”<sup>4</sup>. Bunday tasvirning hikoya, qissa, roman kabi epik janrlarda o‘ziga xos o‘rni bor.

Hikoyada kamar tasviri bor. Ammo uning ichki tasviri va tavsifiga o‘rin

3

4



ajratilmagan. Kamar tasvirining keltirilishi yozuvchining badiiy maqsadiga muvofiq tanlangan va interyer detal sifatida qarash mumkin.

Asar qahramoni (roviy) noma'lum odamning shiddatli yomg'ir yog'ayotgan paytda kamardagi gulxan yonida o'tirishdan oldin soy yoqasiga suv allaqaylardan olib kelgan shox-shabbalarni yugurib-elib terishini ko'radi. U bu odamning betgachoparliligi (yigitning jala ostida qolishi ilmsizligidan ekanligini darhol aytgani) uchun yoqtirmay qolgan edi. Shu sababga ko'ra u "...pishiq odam. Bu o'tinlarni uyiga olib ketadi", - degan xayolga boradi. Ammo ko'p o'tmay uning odamoxunligi (gulxan yoniga o'tirib yomg'ir yog'ishini tomosha qilishni taklif qilishi), mehmondo'stligi (yog'liq patir va qurutni birgalikda baham ko'rish) tufayli bu odam haqidagi fikri o'zgaradi.

Ko'ramizki, mazkur hikoyada detallar uning kompozitsion jihatdan shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o'zi yashayotgan muhit bilan bog'liq holda harakatda bo'ladi. Sharoit insonning xarakteri takomilida uning shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi. Shukur Xolmirzayev ijodida qahramonlar hayotiga, xarakteri rivojiga ta'sir qilgan, ularning ana shunday milliy qahramon sifatida shakllantirgan bir qator ishonarli detallar yarata olgan ijodkordir.

Darhaqiqat, umri davomida izlanishda bo'lgan Shukur Xolmirzayevning millatsuyarligi, vatanparvarligi, So'zga, adabiyotga bo'lgan sadoqati har bir asarida namoyon bo'ladi. Millat degan tushunchani g'oyat qadrlagan yozuvchi u bilan bog'liq masalalarning katta-kichigi, muhim-nomuhimi bo'lmasligini ta'kidlab, o'z asarlarida milliy ruhiyatni chuqur, ishonarli ifodalay bildi. Uning "O'zbek xarakteri", "Navro'z, Navro'z" singari asarlari qahramonlarining ichki olami ham, tashqi shamoyillari ham o'zbekonadir. Muhimi shundaki, millatning qadriyat sifatida barqarorlashgan ma'naviy tayanchlarini sun'iy yo'l bilan yiqitish mushkuldir, zotan, ayni ma'naviy ustunlargina millatning millatligini ta'minlaydi. "Chillak o'yin", "Navro'z, Navro'z", "O'zbek xarakteri", "Qadimda bo'lgan ekan...", "Qushlar qishlovdaan qaytdi" kabi hikoyalarda yozuvchi qo'llagan chillak, gilamcha, navro'z, qo'shtut, paranji, turna – detallari xalqimiz hayotini, yurtdoshlarimiz taqdiridagi muhim jarayonlarni, o'zbekni o'zbek qilgan fazilatlarni, bir so'z bilan aytganda millatning ruhini aks ettiruvchi detallardir.

Adibning shunday hikoyalaridan biri "Xorazm, jonginam" hikoyasidir. Ushbu hikoya mustaqillikdan oldingi yillarda yozilgan bo'lib, yozuvchi unda ijtimoiy hayot masalalari haqida yozadi. Hikoyadahgi birgina dutor detali yuqorida



ta'kidlab o'tganimizdek xalqimizning madaniyatini, milliylik ong-u shuuriga singib ketganligini ko'rsatuvchi predmet detal sifatida ishlatilgan.

Hikoyada shunday tasvir keltiriladi: "Otam eskitdan rubobsoz edi. (...) Hozir ham ko'z oldimda turibdi: men u kishini ko'rgani borgan vaqtlarimda goho tong saharda uydan topolmay qolaman. Ko'chaga chiqsam, po'stin egnida, boshida cho'girma, kimsasiz, baland, koshonalar orasida gangib, bir kuyga quloq solgan kabi yurgan bo'ladi. G'alati manzara-da: hech kim yo'q ko'cha. Karvich devorlar baland. Ular osha qadim gumbazlar ko'rinib turadi. O'tmish, o'tmishning o'zi... Shular orasida birov aylanib yursa! Tag'in u odam gangib-garangsib yursa! ... Nima desam ekan, otam bunday ko'chalarda qandaydir... mana shu manzara bilan uyg'unlashib ketardi: uning uzviy bir bo'lagiga aylanardi"<sup>5</sup>.

Qahramon qalbidan iztirobli iqrortar Vatan – tug'ilgan yurt nimaligini anglatadi. "Xiva, o'sha minoralar, eski karvich devorlar, torko'chalar, sag'anazor mozorlar meni tortdi... men tug'ilgan yurtimni qaytadan kashf etdim: u tap-taqir cho'l, sahro bo'lib qolgandayam – mening tuprog'im ekan"<sup>6</sup> deydi.

Yozuvchi hikoyada detallarni munosib qo'llash orqali qahramonlari ruhiyatini, faoliyatini aks ettirishda keng foydalanadi. Badiiy asar kompozitsiyasi shu darajada pishiq bir qurilmaki, uning biror-bir elementi noo'rin qo'llanilgan bo'lsa yoki ma'lum bir lavha adib tomonidan puxta o'ylanmasdan asarga kiritilsa, asar syujetining kompozitsion yaxlitligiga putur yetadi. Xuddi shu kabi badiiy asarda detallarni o'rinli qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. badiiy asar kompozitsiyasida har bir badiiy elementning o'z o'rni bo'lib, ulardan detal badiiy obrazni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shukur Xolmirzayev ijodida, jumladan, hikoyalari kompozitsiyasida badiiy detallar, tahlillar jarayonida ko'rib o'tganimizdek, yozuvchi ijodiy kredosi hisoblangan tasvir ob'ektivligini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etgan. Umuman, adib o'zbek hikoyachilik san'atini yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Yangi betakror obrazlar yaratishga intilish, asarning kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topish, asar mazmuniga mos detallarni o'rinli qo'llay olish, ularga milliy ruhni singdirish yozuvchi ijodiy uslubining o'ziga xos jihatlarini namoyon ettiradi.

<sup>5</sup> Xolmirzayev Sh. Saylanma: II J. – Toshkent: "Sharq", 2005. – J. 2. – B. 114.

<sup>6</sup> Xolmirzayev Sh. Saylanma: II J. – Toshkent: "Sharq", 2005. – J. 2. – B. 116.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Quronov D. "Adabiyotshunoslikka kirish". – Toshkent: Meros, 2004. – B 76-77.
2. Solijonov Y. "Detallar tilga kirganda"- "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2007- yil, №5.
3. Xolmirzayev Sh. Saylanma:II J. – Toshkent: "Sharq", 2005. – B.116.
4. Xolmirzayev SH.Tanlangan asarlar:Hikoyalar.II J-T: "Sharq",2020. –. B.21.

